

... ToK»rtinchi qavatdagi uying derazasidan moK»ralagan tonggi quyoshning zarrin nurlari yotoqda miriqib uxlayotgan Valijonning betini beozor qizdirdi. Valijon erinibgina koK»zlarini ochdi. SoK»ng nimadir esiga tushgandek seskanib ketdi va oK»rnidan uchib turgancha stolda soatga qaradi. Soat millari rosa yetti yarimni koK»rsatardi.

Valijon noz uyquda yotgan xotiniga razm solarkan:

- Tamom, kechikdim, - deya pichirladi beixtiyor. - Buning uxlashini-chi.

- Kechasi bilan uyqu bermaganingizdan keyin uxlayman-da, - degan ovozi keldi Oypopukning.

Valijon shosha-pisha kiyinib, dahlizga chiqdi. Oyoq kiyimini kiyayotgan mahal ichkaridan xotinining:

- Valijon aka, - deb chaqirgani eshitildi.

- Nima?

- Valijon aka.

- Gapiraqol, - deb baqirdi bu safar Valijon asabiylashib.

- Nega baqirasiz? - dedi muloyim ohangda dahliz ostonasida paydo boK»lgan Oypopuk eriga hayron boqib. - Choy-poy ichmaysizmi?

- Yarim soatda ishxonada boK»lmasam, ish pachava!

Valijon deyarli chopib chiqib ketdi.

\* \* \*

Valijon avtobusning orqa oK»rindiqlaridan biriga oK»tirib olgancha ketib borayotgan edi. Shu payt tirband yoK»lovchilar orasidan bir juvon chiqib keldiyu, Valijonning naq biqinida turib oldi. Juvon yigitga avvaldan taniydiganday qattiq tikildi. Noqulay ahvolga tushgan Valijon uni eslolmadi, ammo har ehtimolga qarshi soK»radi:

- Kechirasiz, meni kimgadir oK»xshatyapsizmi, xola?

Juvon gK»azab bilan hammaga eshittirguday tarzda oK»shqirdi:

- Xotin kishiga joy bersang oK»lasanmi?!

YoK»lovchilarning bir qismi yalt etib shu tomonga qarashdi.

Valijon yer yorilmaydiyu, yerga kirib ketmadi. U shosha-pisha oK»rnidan turib, ayolga joy berarkan, xijolat aralash:

- Marhamat... marhamat... - deya oldi.

Tik turib olgan Valijonga shopmoK»ylov, bahaybat, ellik yoshlardagi, koK»zlari atrofga olazarak boqayotgan yoK»lovchi qapishib turardi. Valijon bir-ikki marta uning gavdasini sal nari surgan boK»ldi. Ammo xoK»mrayib olgan shopmoK»ylov atay qilayotganday battar unga tiqilgani tiqilgan edi.

B«Bungayam joy kerakka oK»xshaydi, - degan oK»y oK»tdi Valijonning koK»nglidan. - Xuddi men yeb, u quruq qolganday oK»qrayishini...

Valijon parvo qilmaslikka urinib, oynadan tashqarini kuzatib ketaverdi. Ammo yoK»lovchi hadeb ogK»irligini solavergach, tutqichni ushlagan qoK»llari tolib ketgan yigit axiyri chiday olmay bir amallab boshini orqaga burdi-da:

- Sal oK»zingizni ushlab turing, amaki, - dedi.

Ammo B«amaki gap tasir qilmaydiganlar xilidan ekan, shekilli, Valijonga yeb qoK»yuguday boK»lib tikilarkan, palagK»da ovozda vishilladi:

- Bu avtobus, katta xolangning mashinasi emas. Yoqmasa, ana, taksida ket, uka!

Battar dili xira tortgan Valijon noiloj tishini tishiga bosdi.

Yigit shu alfozda bir amallab zarur bekatga qadar yetib keldi va yoK»lovchilar orasidan arang sirgK»alib oK»tib, avtobusdan tushib qoldi. U oyoq izlari qolgan poyabzaliga, gK»ijim boK»lgan shimiga ham qaramasdan ishxonasi tomon yugurdi.

Qancha harakat qilmasin, Valijon ishga besh daqiqa kechikib keldi. Yigitning baxtiga bugun nimagadir boshliq shaxsan oK»zi xodimlarning vaqtida ishga yetib kelishini tekshirib chiqmabdi.

Ha, gK»alati odam-da bu Akobir aka. OK»rni kelsa-kelmasa:

- Mehnatning asosi - tartib-intizom! - deb takrorlashni xush koK»radigan bu rahbar kunda-kunora darvoza yonida semiz daftarni koK»tarib olgan kadrlar boK»limi boshligK»i Hanifa opa bilan turib olar va kimning qachon ishga kelganini belgilab qolardi.

Bunday kunlari ishga kech qolgan xodimning boshida kaltak sinardi. Akobir aka kabinetiga kelasola barcha oK»rinbosariyu boK»lim boshliqlarini hamda kechikkan xodimlarni chaqirib, darhol oK»zi B«pyatiminutka deb atagan yigK»ilishni boshlar va odatda kamida bir yarim-ikki soat davom etadigan bu yigK»inda hamma boshini quyi eggancha intizom mehnatning asosi ekanligi haqidagi eski, siyqasi chiqqan, deyarli yod boK»lib ketgan maruzani tinglardi. Rahbar yigK»ilishni oK»zi ochar, oK»zi davom ettirar va, tabiiyki, oK»zi yakunlarkan, ishga kechikib kelgan xodimlarga hayfsan elon qilishni taklif etar va bu taklifini bir ovozdan maqullatib olgach, mamnuniyat ila majlis bayonnomasini erinmay yozib oK»tirgan Hanifa opaga qarata:

- Majlis qarorini albatta protokolga kiritib qoK»ying, - deb takidlashni unutmadi.

Xodimlarning koK»pchiligi ishga kechikishdan emas, rahbarning mana shu maruzasini eshitmaslik uchunoq vaqtdan burunoq oK»z xonalariga yetib kelardilar.

Shu bilan... tamom edi. Yani Akobir aka xodimlar kun boK»yi nima ish bilan mashgK»ul boK»lishi bilan unchalik qiziqmas, toK»gK»rirogK»i, rahbarning oK»zi kun boK»yi davom etadigan qandaydir bosh-keti yoK»q yigK»inlardan beri kelmasdi.

Inji rahbarning B«etiboridan qutulib qolganidan mamnun boK»lgan Valijon oK»rganib qolgan odati boK»yicha barmogK»idagi nikoh uzugini aylantirib oK»ynamoqchi boK»ldi. Ammo toK»satdan yigitning rangi dokaday oqarib ketdi. U shoshib barmogK»iga qaradi. Ha, uzuk yoK»q edi!

Yuzini sovuq ter bosgan Valijon nimagadir kissalarini titkiladi, gK»ijimlangan pullariniyu dastroK»molini ham stolga olib, har birini birma-bir paypaslab chiqdi. Keyin B«Balki shu yerga tushgandir degan oK»yda polga toK»shalgan kulrang kigizga choK»kka tushgancha emaklab uzukni izlashga tushdi.

Uzuk yoK»q edi.

Valijonning koK»z oldi qorongK»ulashib ketdi.

Xonaga kirib kelgan Ramazon hamkasbini mana shunday ahvolda koK»rdiyu, qoK»rqib ketdi.

- Nima gap, Valijon? - deb soK»radi u jon holatda.

Valijon Ramazonning savolini eshitmaganday unga garang ahvolda tikildi. SoK»ng:

- Uzuk... - deya pichirladi majolsiz tarzda.

- Qanaqa uzuk? - dedi Ramazon hayron boK»lib.

Valijon javob oK»rniga nikoh uzugi oK»rni muzday boK»lib turgan barmogK»ini koK»rsatdi.

- Ha, tushunarli... YoK»qolmasidan avval shu yerda edimi? - deb soK»radi Ramazon.

Valijon unsiz bosh irgK»adi.

- Shungayam ota goK»ri qozixonami? - dedi Ramazon. - YoK»qolgan boK»lsa topiladi. Topilmasa, ana, marhamat, bozor toK»la uzuk.

- Nimalar deyapsan? - dedi Valijon. - Axir u xotinimdan sovgK»a-ku. Unaqasini qaerdan topaman?

- Pul boK»lsa changalda shoK»rva, - dedi Ramazon.

- Baribir unaqasini topolmayman-da, - Valijon chuqur xoK»rsindi. - Xotinim bilsa yaxshi boK»lmaydi. Keyin, oK»zing bilasan, bor pulni toK»yga sovurib boK»lganman.

- Nima, uylanganingga uch oy boK»lmay turib, xotiningdan qoK»rqib qoldingmi, a? - quvlik bilan soK»radi Ramazon.

- Nega qoK»rqar ekanman? Men uni hurmat qilaman, xolos.

- Yashavor, Valijon! - dedi Ramazon kulimsirab. - Biz erkaklar ayollarni albatta hurmat qilishimiz kerak.

- KoK»p gapirmay, uzukni topishimga yordam bersang yaxshi boK»lardi, - dedi Valijon jiddiy ohangda.

Ramazon bir muddat oK»ylanib turgach:

- Qarz ol, - dedi.

- Kimdan?

- Mendan emas, albatta. Ishxonada birortasidan.

- Be, qoK»ysang-chi, - dedi Valijon. - Bitta uylangulik holi bor ekan-ku deyishmaydimi? OK»zimiznikilardan soK»rolmayman.

- ToK»gK»ri aytasan, - dedi Ramazon boshini qashlab. - Unda boshqa yoK»li bor. Faqat aytganimni qilasan, maylimi?

Valijonning koK»nglida umid chiroqlari yondi.

- Sen ayt, aytaver, - dedi u. - Uzuk topilsa boK»lgani.

- BoK»lmasa, ikkalamiz bir joyga borib kelamiz.

- Qayoqqa?

- Yur, - dedi Ramazon eshik tomon yoK»nalib.

- Ish-chi? - dedi Valijon stoliga koK»z tashlab.

- Senga ish kerakmi, uzukmi?

Valijon shoshib Ramazonga ergashdi.

\* \* \*

KoK»p qavatli uyning uchinchi qavatiga koK»tarilgach, Ramazon toK»gK»ridagi eshik qoK»ngK»irogK»ini bosdi. Bir muddat oK»tgach ichkaridan ayol kishining:

- Kim? - degan ovozi eshitildi.

Eshik xiyol ochilib boshyalang, shuning uchun sochlariga oralagan oq shundoq koK»rinib turgan keksaroq ayol koK»rindi.

- Sizlarga kim kerak?

- Assalomu alaykum, - degach Ramazon sherigiga ishora qildi: - Ishimiz tushib keluvdik oldingizga.

Ayolning ovozi yumshadi.

- Nega haykal boK»p turibsizlar, ichkariga kiringlar, - dedi u xijolat tortgandek. - Men sizlarni soliqchilarni deb oK»ylyabman.

Ikkovlon ayolning ortidan ichkariga kirishdi.

- Bu yerda kunduzi sizlarga oK»xshagan ishi tushib kelgan hojattablarni qabul qilaman, - deya izoh bergan boK»ldi ayol mehmonlarga. - OK»zim dachada yashayman. Qani, oK»tiringlar.

Ramazon bilan Valijon xona chetidagi stol yonidagi ikkita stulga oK»tirishdi.

- Shaharning manaman degan kishilari mening oldimga kelishadi. Men sizlarga aytsam, bir paytlar katta-katta ishlarda ishlaganman. Lekin ichi kir, koK»rolmas bir-ikkita kazzob kimsalar uyushtirgan tuhmat kasriga qolib, ishdan boK»shashga majbur boK»lganman. Mana endi, pensiyaga chiqqach ham odamlarga nafim tegsin deb savob ish bilan shugK»ullanyapman. OK»tgan kuni bir juvonning qimmatbaho taqinchogK»ini topib berdim. Ayol bechoraning yigK»layverib, koK»zlari shishib ketgan ekan.

Undan: B«TaqinchogK»ingni oK»zingdan boshqa yana kim taqardi? deb soK»raganimni bilaman, zip etganча uyimdan chiqib ketib yuborsa boK»ladimi. Oradan biron soatlar oK»tib, oldimga qaytib keldi. Ha, egachi, nima boK»ldi, xayrniyam nasiya qilib ketdingiz-u desam, nima deydi denglar. Sizga ming rahmat, opajon, taqinchogK»imni topib berdingiz. Uni qizim tushmagur oK»rtoqlarimga bir maqtanayin deb maktabiga taqib ketgan ekan, deydi-ya. - Ayol picha tin olgach, yana gapida davom etdi. - Hozir odamlar shunaqa parishon boK»lib qolishgan... XoK»sh, sizlar qanaqa ish boK»yicha keldingiz? - U mehmonlarga savol nazari bilan qaradi.

Ramazon B«oK»zing gapir deganday sherigini turtdi. Ayol:

- Shoshmang, - dedi, - oK»zim aytaman. Sizlar mol yoK»qotgansizlar.

- Mol emas, - dedi Valijon hayron boK»lib. - Uzuk... nikoh uzugi.

- Jim boK»l, - dedi ayol stolga kosada suv keltirib qoK»yarkan. - Uzuk mol boK»lmay nima? Aytdim-ku shaharning kazo-kazolari menga kelishadi deb.

Ayol kosadagi suvga sinchiklab tikildi. Valijon ham unga qoK»shilib kosaga koK»z tashladi, biroq unda suvdan boK»lak hech narsani koK»rmagach, hayron boK»lib Ramazonga qaradi.

- Ana! - deb birdan qichqirib yubordi ayol yigitlarning kapalagini uchirib.

- Qani? - dedi Valijon shosha-pisha kosani qoK»liga olarkan.

Ayol undan kosani qaytarib oldi va suvga diqqat bilan tikilishda davom etdi.

- Hisob-kitobli yerda ishlarkansan, - dedi u Valijonning koK»zlariga tikilib. - QoK»ling har oyda pul koK»rarkan, toK»gK»rimi?

- ToK»gK»ri, - tan oldi Valijon.

Kutilmaganda ayolning avzoyi buzilib:

- Latta! - deya baqirdi. - Nima qilib uzukni yoK»qotib yuribsan!

Valijon ayolning dashnomidan choK»chib, tili aylanmay qoldi.

- Men... men bilganim yoK»q, - dedi u duduqlanib. - Kechagina oK»zimda edi. Ishga kelib bildim yoK»qligini..

Ayol yengil tin oldi.

- Voy sodda-ey, - dedi u endi kulimsirab. - Uzukni yoK»lda yoK»qotibsan-ku.

- Qaydam...

Ayol yana kosadagi suvga razm soldi.

- Ishga koK»pchilik orasida kelibsan.

- Ha, avtobusda odam koK»p edi, - dedi Valijon ayolning topqirligidan hayratini yashirolmay.

- U yerda kimdir senga yomon nazar bilan qaraganmidi?

Valijon nimanidir eslashga urinib peshonasini qashladi.

- Bor edi, - dedi u nimadir esiga tushganday. - Avtobusda, shundoq biqinimda bir odam bekatimgacha menga xoK»mrayib qarab keldi.

Ayol uzukni allaqachon topib berganday magK»rur yoK»talib qoK»ydi.

- Odam bolasiyam shunchalik sodda boK»ladimi? - dedi ayol oK»rnidan turarkan. - XoK»mraysa jim ketaverdingmi? Bor, endi uni izlab top. Gumonim oK»shandan. OK»gK»ri hozir sen tushib qolgan bekatda sherigi bilan avtobus kutib oK»tiribdi.

Valijon shoshib oK»rnidan turasola eshikka qarab yurdi.

- ToK»xta! - dedi ayol uning ortidan. - Xizmat haqqi-chi?

Valijon xijolat boK»lib ortga qaytdi va kissasidan bir dona ming soK»mlik chiqarib, stolga tashladi.

Ayolning beti tirishdi.

- Hoy yigitcha, - dedi u qat'iy ohangda. - Men senga tilanchimanmi? Ziqlalik qilmasdan tashla.

Valijon hamkasbiga qaradi. Afti burishib ketgan Ramazon gK»oyat norozi tarzda kissasidan ikkita ming soK»mlik chiqarib, stolga uloqtirdi.

\* \* \*

Ramazon bekatga qadar Valijonga ergashib keldi. SoK»ng negadir yuragi dov bermay:

- Balki izlashni bas qilarmiz, - dedi. - OK»gK»rini topganimiz bilan ikki dunyodayam boK»yniga olmaydi. Chunki senda uni oK»gK»ri demoqqa asos yoK»q. Bekorchi gap-soK»zlarni nima keragi bor?

- QoK»rqayapsanmi? - piching qildi Valijon. - Seni ushlab turganim yoK»q. Istamasang ketaver. Ana men tushgan bekat.

Valijonning qadamlari tezlashdi. Ramazon noiloj uning ortidan yurdi.

Bekatta odam gavjum edi. Valijon yoK»lovchilarga diqqat bilan nazar solib chiqdi. YoK»lovchilardan biri uning harakatiga hayron qolib, barmogK»ini peshonasiga niqtab aylantirib qoK»ydi.

Valijon birdan yelkasiga kattakon sumka osib olgan, oK»ziga taksida ketishni maslahat bergan oK»sha shopmoK»ylov yoK»lovchini va uning yonida turgan aynan oK»sha, uning joyini tortib olgan ayolni koK»rdi! Ha, yigit adashishi mumkin emas edi. Ikkalovchi chekkaroqda turib, past ovozdada nimanidir gaplashishar edi.

B«Demak, bular sherik ekan! - degan qarorga bordi Valijon. - Biri chalgK»itib turadi, ikkinchisi...

Valijon shoshib ularning yoniga yaqin bordi va erkakka oK»qrayib qararkan:

- Qalaysanlar, oK»gK»rilar? - dedi.

ShopmoK»ylov avval shoshib qoldi, soK»ng qahr bilar:

- Nimalar deyapsan? - dedi. - Mastmisan, nima balo!

- OK»zini goK»llikka olishini koK»ryapsanmi buning? - dedi Valijon janjal koK»tarilishidan choK»chib turgan hamkasbiga qarab.

SoK»ng yana shopmoK»ylovga oK»girildi: - Uzukni qaerga gumdon qilding?

- Qanaqa uzuk? - dedi hamon gap nima haqidaligini anglay olmayotgan yoK»lovchi. - Sen meni kimgadir oK»xshatyapsan shekilli?

- Shekilli emas, - dedi Valijon yoK»lovchining yoqasidan olib. - Aniq sen olgansan. KoK»zlaring bejo edi. Chiqar uzukni.

Yaxshilikcha chiqarsang milisaga aytib oK»tirmayman. BoK»lmasa qamatib yuboraman sheriging bilan qoK»shib!

ShopmoK»ylov boK»sh kelmadi.

- Bor, qoK»lingdan kelganini qil! Agar milisa chaqirB-sang, tuhmat qilganing uchun avval oK»zingni qamataB-man!

Shu paytga qadar nima boK»layotganini tushunolB-mayotganday bularga angrayib qarab turgan ayol toK»satdan chinqirib yubordi va dod solgancha Valijonning yuziga chang soldi.

- Odamlar! Ushlanglar tuhmatchini! Qip-qizil jinni-ku bu!

Valijon to oK»ziga kelib olgunicha ayolning oK»tkir tirnoqlari boK»ynini tilib oK»tdi.

ShopmoK»ylov ham tek turmadi. Nogahon u boK»layotgan tomoshani hayron kuzatib turgan Ramazonning yuziga musht tushirdi.

OK»ziyam gurziday musht ekan, boK»shashibgina turgan Ramazon ikki qadam nariga uchib ketdi.

Ayol kishi bilan teng kelib boK»larmidi!

Valijon noiloj ortga chekindi.

Bekattagi yoK»lovchilar bularni qiziqish bilan kuzatib turishardi.

ShopmoK»ylov boks ilmidan xabari bormi yo koK»cha janglari hadisini olganmi, ishqilib, tuyqus chaqqonlik bilan Valijonning qorniga ikki marta tepib qulatdi.

SoK»ng shundoq yonidan oK»tib borayotgan taksi mashinaB-sini toK»xtatdi. ShopmoK»ylov bilan ayol xuddi kelishganday chaqqonlik bilan mashinaga chiqishdi.

Mashina siltanib olgK»a intildi.

Sharmanda boK»lgan Valijon ixrab oK»rnidan turdi.

Ramazonning ahvoli ham unikidan yaxshiroq emasdi. Ikkovlon chekkaroqqa oK»tishdi.

- Bosqinchilar! - deya pishilladi Valijon. - Borib milisaga ariza berish kerak.

- Tentak boK»lma. Bir kami uzuk qolib, endi melisaga qatnash qoluvdi, - dedi Ramazon toK»ngK»illab.

- Uzukni shular oK»gK»irlagani aniq...

- E, oK»sha uzugingniyam!.. - dagK»dagK»a qildi Ramazon asabiylashib. - Hammasiga oK»zing aybdorsan. Ketsa ketar bitta uzuk. Erkak degan ham xotinidan shuncha qoK»rqadimi?

Valijonning koK»zlari pipiradi.

- Men xotinimdan qoK»rqmayman, - dedi u ohista.

- Sen yaxshi odamsan, Valijon, - deya hamkasbini yupatishga urindi Ramazon. - Lekin oK»lgudek soddasan. Folbinning gapi esingdami, u seni B«soddasan dedi. Sen boK»lsang, uning gaplariga laqqa ishonib oK»tribsan. Axir sen barmogK»ingdagi uzukni oldirib qoK»yib, sezmay qoladigan darajada ahmoq emassan-ku.  
Valijon boK»sh kelmadi.  
- Unda meni nega uning oldiga yetaklab bording?  
- Men ham senga oK»xshab soddadirman-da, - iljaydi Ramazon. - Endi bundoq, hozir sen bilan boshqa joyga boramiz.  
- Qayoqqa? Yana folbingami?  
- Borganda bilasan. Yuraver, qoK»rqma, bu gal hech kim doK»pposlamaydi. Qarz olib turamiz, qarz.

\* \* \*

- Ramazon ulkan, naqshinkor yogK»och darvozaning qoK»ngK»irogK»ini bosgach, eshikni bir moK»ysafid ochdi.  
- Kelinglar, - dedi u tavoze bilan.  
Ikkovlon qariyaga salom berib, uning ortidan hovliga kirishdi. Sirtidan oddiygina koK»ringan hovlining ichkarisidagi hashamat Valijonni hayratga soldi. Ramazon esa ilgariyam bu yerga kelib-ketib yurgandek etibor qilmadi.  
Qariya baxmal koK»rpacha toK»shalgan soK»riga chiqib oK»tirib, fotiha qildi va hol-ahvol soK»rashgach, mehmonB»larga choy uzatdi.  
- Ishlaring yaxshimi? - dedi u Ramazonga. - Bundoq kelay ham demaysan?  
- Ish koK»p, - dedi Ramazon piyolani qoK»liga olib.  
Qariya doK»ppisini olib, tepakal boshini qashladi.  
- XoK»sh, inim, bizga nima xizmat? - dedi u choy hoK»plarkan.  
- Bir iltimos bilan keluvdik oldingizga. - Ramazon Valijonga ishora qildi. - DoK»stimga picha pul kerak boK»lib qoluvdi. OK»zi yaqinda uylanib, borini sochib boK»lgan. Shunga bir yordam qilib yuborsangiz. Agar iloji boK»lsa, albatta.  
Qariya Ramazonning gapiga tushunmaganday hayron boK»ldi.  
- Bu nima deganing, inim? - dedi u doK»ppisini qaytadan kiyib. - Qani, sen menga ayt-chi, bu dargohdan kimningdir norizo boK»lib qaytganini hech koK»rganmisan?  
Ramazon qovun tushirib qoK»yganday, oK»zini noqulay his qildi.  
- YoK»gK»-e. Sizning qanaqa odamligingizni hamma biladi. Shu doK»stimizgayam oK»sha saxiyilgizni koK»rsatsangiz, devdim, xolos.  
- Qancha? - dedi qariya boyadan beri odob saqlab jimgina oK»tirgan Valijonga koK»z tashlab.  
Ramazon B«gapir degandek uni sekin turtadi.  
- Yuz ming, - dedi Valijon ming xijolat bilan eshitar-eshitilmas ovozda.  
- Yuz ming sal koK»plik qilasmikin? - deb soK»radi qariya ovozini sekinlashtirib. - Yo biznes-plan aniqmi?  
- Yuz ming soK»m, aka, - darhol izoh berdi Ramazon. - OK»zimizning pulda.  
Qariya Ramazonga B«Kimni olib kelding? degan manoda oK»qrayib qarab qoK»ydi va hafsalasi pir boK»lganday piyoladagi choy tagini nariga sochdi.  
- Olimboy! - deya ovoz berdi chol ichkariga qarab. - Olimchik!  
Uy ichkarisidan:  
- Labbay, buvajon! - degan ovoz eshitildi.  
SoK»ng uydan qiltiriqqina oK»spirin chiqib keldi.  
U mehmonlarga odob bilan salom berib, buvasiga yuzlandi.  
- Mana bu amakilaringga yordam berishimiz kerak, - dedi qariya mehmonlarga ishora qilib. - Buvingga ayt, yuz ming olib bersin.  
- B«KoK»kidanmi, buva?  
- SoK»mda, - deb yubordi Valijon shosha-pisha.  
Bola ichkariga kirib, bir zumda qaytib chiqdi va bir tutam yirik pul chiqarib, birpasda sanab ham berdi.  
- Mana, buva, - deya u qariyaga qoK»lidagini tutqazdi.  
Qariya pulni olib, Valijonga uzatdi.  
- Ah, esim qursin, - dedi u birdan nevarasiga qarab. - Qari cholning xotirasi chatoq-da. Olimboy, bu oldi-berdingning sharti qanaqa edi?  
Bola hafsala bilan koK»rpachaga chordona qurib oK»tirdi.  
- Hozir tushuntiraman. - U mehmonlarga bir-bir koK»z yugurtirdi. - QoK»lingizda yuz ming soK»m pul. Buvam guvohlikka oK»tadilar. ToK»gK»rimi, buva? -- Qariya tasdiq manosida bosh tebratdi. - Muddati oK»n besh kun. Yigirma foiz ustamasi bilan shu yerda sanab olaman.  
Valijonni titroq bosdi. Ovozi qaltirab:  
- Qancha?.. - dedi. - Sal kamaytirishning iloji yoK»qmi?  
Valijon oK»tinch toK»la nigohini qariyaga qaratdi. Chol B«undan soK»ranglar degan manoda bolaga ishora qildi.  
- Men bitta gapiraman, - dedi bola kattalarga xos qat'iy ohangda. - Yoqmasa, ana, katta koK»cha...  
Ikkovlon qariya bilan xayr-xoK»sh qilgach, tashqaB»riga chiqishdi. Valijon suyunishini ham, kuyishini ham bilmay arosatda qolgandi.  
YoK»lni toK»gK»ri bozor tomon solishdi. Zargarlik doK»konida Valijon oynavand rastalarga koK»z yugurtirib, aynan oK»zining nikoh uzugiga oK»xshash uzukni uzoq qidirdi.  
Sabri chidamagan Ramazon:  
- Nima, senikidaqa uzuk dunyoda bitta ekanmi? - dedi toK»ngK»illab. - Bittasini tanlasang-chi.

Valijon axiyri bir uzukni tanladi. Ammo koK»ngli unchalik toK»lmayotgani nigohidan sezilib turardi. Qolaversa, bolakaydan olgan qarzi ham uzukka yetmaydi. U Ramazonga jovdirab qaradi.

ChoK»ntagidan soK»nggi pullarini chiqargan Ramazon:

- Jin ursin! - dedi xuddi jonini sugK»urib berayotganday. - Bilib qoK»y, bu pul meniki emas, xotin akaniki. Bir narsa buyurgandi.

This is not registered version of TotalDocConverter  
Bir Ramazonning, shu kun, esmuncha ham, qo'ng'ir qo'limda boK»lishi shart!

Valijon shosha-pisha bosh irgK»adi.

Baribir, bir olam ishlar yigK»ilib qolgan ekan. Shu sababli Valijon bilan Ramazon yumush vaqti tugaganB—dan keyin ham qolib, ikki soatcha ishlashga majbur boK»lishdi.

Axiyri hammasi tugadi.

Ikkovlon shoshib koK»chaga chiqishdi.

Valijon bu safar yoK»lovchi kam, oK»rindiqlar deyarli boK»sh avtobusda qaytdi. Shunday boK»lsa ham yoK»l boK»yi uzuk taqilgan qoK»lini mahkam musht qilib tugib keldi.

Mana, qadrdon uy. Qadrdon eshik. Qadrdon eshik qoK»ngK»irogK»i.

Oypopuk yayrab-yashnab eshikni ocharkan, oK»pkalagan ohangda dedi:

- Voy, namuncha kechikdingiz? Xavotirga tushdim...

- Mana, keldim-ku, - deya jilmayishga urindi Valijon.

- Sizga nima boK»ldi? -Oypopuk erining charchoqdan kirtayib qolgan koK»zlariga diqqat bilan tikildi.

- Ish koK»payib ketdi, - oK»zini oqlashga urindi Valijon.

- Ishingiz erta tugardi...

- Ishdan keyin ham ishlashga toK»gK»ri keldi.

ToK»satdan Oypopuk erining qoK»liga qaragancha dong qotib qoldi.

Kelinchak ichida nimadir B«choK»rt etib uzilganday eriga garangsib, karaxt ahvolda, oK»z koK»zlariga ishonmayotganday tikildi.

Oypopuk banogoh B«oh tortib yubordi va erining qoK»lidagi uzukka ishora qilarkan:

- Demak, yana bitta oilangiz bor ekan-da... - deya behol shivirladi rangi quv oK»chib.

- Ha, bumi? - beparvo ohangda gapirishga urindi Valijon. - Bu oK»zing sovgK»a qilgan uzuk-ku.

Oypopuk hamon karaxt ahvolda xalati choK»ntagini timirskilab, nihoyat tilla nikoh uzugini chiqardi va ohista pichirladi:

- OK»zim sovgK»a qilganni kecha kechasi hazillashay deb olib qoK»ygandim. Mana u. BarmogK»ingizdagi boshqa...

Valijon jon-jahdi bilan izoh berishga chogK»landi. Ammo Oypopuk toK»satdan hoK»ngrab yigK»lab yubordi va ikkala kafti bilan yuzini berkitgancha ichkariga chopib kirib ketish oldidan temir eshikni erining yuziga qarsillatib yopdi...